

**XORIJIY TADQIQOTLARDA NIZOLI XULQ ATVORNI TADQIQ
ETISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI***Xolmatov Mansur Abdiraxim o'g'li**Alfraganus university**“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi o'qituvchisi*

Annotatsiya. psixologik adabiyotlarda nizoli xulq-atvor muammosining nazariy va amaliy muammolari turli nazariy yondashuvlarga asoslangan holda muhokama qilingan. Shuningdek, talabalarda nizoli xulq-atvorga doir klassik va zamonaviy yondashuvlarning konseptual va differensial tahlillari amalga oshirilgan.

Kalit so'zlar: xulq-atvor, nizoli vaziyatlar, emotsiya, yondashuv, tarbiya

Hozirgi kunda, barcha fan sohalarida integratsion va modernizatsion jarayonlar kechayotganligi bois, o'rganilayotgan muammolarning zamonaviy konsepsiyalari va tendensiyalariga ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Bu esa, fan sohalaridagi muammolarning yechimiga doir yangi usullar, ilg'or nazariyalar hamda yangicha qarashlarning yaratilishicha sabab bo'lmoqda. Zamonaviy psixologiya imkoniyatlari, jamiyatdagi barcha ijtimoiy masalalardan tortib, insonlar o'rtasidagi eng murakkab aloqalarni ham o'rganishga qodir bo'ladi. Nizoli xulq-atvor muammosi ana shunday muammolardan biri hisoblanib, hozirgi kunda uni o'rganishning ko'plab zamonaviy yondoshuvlari ishlab chiqilgan. Mashhur Amerikalik nazariyotchi L.Kouzerning “nizo” borasidagi yondoshuvi, xorijda eng mashhur qarashlardan biri sifatida tan olinadi. Muallifning so'zlariga ko'ra, nizo - bu qadriyatlar uchun kurash hisoblanadi, inson biror bir vaziyatda ma'lum bir kuch va resurslar maqomiga da'vo qiladi, bunda maqsad o'z dushmanining maqsadlarini zararsizlantirishdan iboratdir. Demak, nizoli xulq bir jihatdan dushmanga zarar yetkazish yoki uni yo'q qilishni ham maqsadqilib qo'yadi. Zamonaviy tadqiqotlarda, nizoli xulq ta'rifiga doir sotsiologik va psixologik ta'riflar bilan bir qatorda, rasmiy mantiq yoki o'yin nazariyasi kabi jihatlar ham ajratiladi[6]. Ushbu yondashuvlarda shaxs xatti-harakatlardan zarar ko'rishini yoki u vaziyatdan chiqib ketishi ham mumkin. Bizningcha, har qanday nizolar faqat uning ob'ektlari ishtirokida paydo bo'ladi. Shaxslar yoki ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi to'qnashuvlar asossiz emas, balki uning ishtirokchilari biror narsani o'zaro bo'la olmasalar nizolashishga qadam qo'yadilar. Ko'plab psixologik adabiyotlarda, nizoli xulq fenomenini tadqiq etishda, uning tizimli tuzilishiga keng e'tibor qaratish kerakligi ta'kidlanadi. Rus psixologiyasida bunday yondoshuvni L.A.Petrovskayaning izlanishlarida uchratish mumkin. Muallifning aytishicha, nizoli xulqni o'rganishda, to'rt muhim psixologik jihat ajratiladi:

- nizoning tuzilishi;
- nizo dinamikasi;
- nizo vazifalari;

– nizo tipologiyasi va hokazo. Demak, nizoli xulqni o‘rganishda uning mazmun mohiyati, uning kelib chiqish sabablari, nizoning rivojlanishi, nizolarning tasnifi va ularning tuzilishi, nizoli xulq dinamikasi, nizo vazifalari tabiati, ziddiyatli axborotlar, ogohlantiruvchi vaziyatlar, nizolarni hal qilish yo‘llari, nizoli xulq diagnostikasi va korreksiyasi kabi masalalar asosiy e‘tiborda bo‘lishi kerak. Tom ma’noda, nizolarning quyidagi turlari farqlanadi[8]:

- guruh ichidagi nizolar;
- guruhlararo nizolar;
- etnik nizolar;
- kichik guruhlarga xos nizolar;
- oilaviy nizolar;
- tashkilotlardagi nizolar;
- qisqa muddatli nizolar;
- uzoq muddatli nizolar va hokazo.

Mazkur tasnifga muvofiq, nizolar tabiatiga ko‘ra, sof ijtimoiy-psixologik hodisa hisoblanib, ularni tadqiq etish nafaqat insoniyat uchun balki jamiyat ravnaqi uchun ham o‘ta ahamiyatlidir. Shuni aytib o‘tish joizki, falsafa fanida ham nizoli xulq fenomenini o‘rganishning o‘ziga xos tendensiyalari mavjud bo‘lib, ushbu tadqiqotlarda nizolarni o‘rganishga doir quyidagi yo‘nalishlarni uchratish mumkin[2]:

– axloqiy nizolar ya’ni, unda pedagogik jarayondagi, mehnat jamoalaridagi, harbiy jamoalardagi, boshqa kasbiy sohalardagi ziddiyatlar o‘rin olgan bo‘lib, ularni tadqiq etishning falsafiy masalalari ham mavjud;

– etnosiyosiy nizolar – bu millatlararo kelishmovchiliklar, kosmopolizm, geosiyosiy mafkuralar, ommaviy noroziliklar kabilar bilan tavsiflanadi[4];

– ijodiy nizolar – sohalararo, fanlararo ishlab chiqilgan yangiliklar, ilmiy g‘oyalar, ilmiy yondoshuvlar, ilmiy tamoyillar o‘rtasidagi nizolar[7];

– ijtimoiy nizolar – har bir davr ijtimoiy qarama-qarshiliklar, rivojlanish, tanqidiy munosabatlar va ijtimoiy ta’sirlardan iborat. Ushbu tasnif etilgan nizo turlari ijtimoiy-falsafiy mazmunga ega bo‘lib, unda ko‘plab ijtimoiy omillar, jarayonlar, sabab va oqibatlar hamda ijtimoiy sivilizatsiyalar aks etadi. Ijtimoiy psixologiya sohasida yetakchi xorij olimlardan biri sanalgan V.S.Xokerning yozishicha, nizoli harakatlarning to‘rt turi mavjud ya’ni[1]:

– ichki shaxsiy nizolar – ushbu turdagi nizolarning ishtirokchilari insonlar emas, balki turli xil psixologik omillardan iborat. Ya’ni shaxsning ichki dunyosi hisoblangan ehtiyojlar, motivlar, qadriyatlar, his-tuyg‘ular va ularni qondirishdagi

nomutanosibliklar sabab bo'ladi. Ba'zan inson biror vaziyatni yoki vazifani hal etishning imkonini topa olmaydi va u oxir oqibat nizoli harakatga aylanadi[5];

– shaxslararo nizolar. Mazkur tur eng ko'p tarqalgan nizo turlaridan biri bo'lib, insonlar hayotda bir-birlaridan dunyoqarashlar, xulq-atvor sifatleri, individual-psixologik xususiyatlari bilan tubdan farq qiladi. Ko'pincha, bunday vaziyatlar moddiy boyliklar, ishlab chiqarish vositalari, ulardan foydalanish vaqti, mehnat munosabatlari kabilarda ham namoyon bo'ladi;

– shaxs va guruh o'rtasidagi nizolar. Norasmiy guruhlar o'zlarining xatti-harakatlari va muloqot normalarini o'rnatadilar. Bunday guruhning har bir a'zosi ushbu normalarga rioya qilishi kerak. Guruh qabul qilingan me'yorlardan chetga chiqishni salbiy deb hisoblaydi, shu bois shaxs va guruh o'rtasida ziddiyat yuzaga keladi. Ushbu turdagi yana bir keng tarqalgan nizo rahbar va guruh o'rtasidagi nizolardir. Ko'pincha, bunday nizolar avtoritar uslubdagi rahbarlik boshqaruvida sodir bo'ladi;

– guruhlararo nizolar. Ayrim tashkilotlar ko'plab rasmiy va norasmiy guruhlardan iborat bo'lib, ular o'rtasida nizolar kelib chiqishi tabiiy. Masalan, rahbar va xodimlar o'rtasida, bo'linmalar ichidagi norasmiy guruhlar o'rtasida, boshqaruv bo'limi va kasaba uyushmasi o'rtasidagi nizolar bunga yaqqol misoldir. Ba'zi psixologik tadqiqotlarda, nizoli xulq sub'ektlarining bir-birlariga qaratilgan dushmanlik harakatlarining quyidagi xususiyatlari ajratiladi:

– o'zga kishilarning rejaları va niyatlarini amalga oshirishga bevosita yoki bilvosita to'siqlar yaratish;

– boshqa tomonlarning istaklari va g'oyalarini tan olmaslik yoki unga qattiq qarshilik ko'rsatish;

– nizoli munosabat qaratilgan sub'ektlarning harakatlariga to'siq qo'yish, narsalarini tortib olish, yoki ularning imkoniyatlarini oldini to'sib qo'yish, o'z manfaatlari yuzasidan uni ushlab turish;

– o'zga shaxslarning mulkiga yoki obro'siga bevosita yoki bilvosita zarar yetkazish masalan, tuhmat qilish hamda mish-mishlar tarqatish;

– inson qadr-qimmatini kamsituvchi harakatlar jumladan, og'zaki haqorat qilish va qadr-qimmatini toptash va hokazo;

– shaxsni o'zi istamagan ishga majburlash yoki majburlovchi tahdidlar qilish va boshqalar;

– jismoniy zo'ravonlik qilish.

Mazkur yondashuvga muvofiq, nizolar tabiatiga ko'ra, dushmanlik, qarama-qarshilik, boshqalarni tan olmaslik kabi karakterologik xususiyatlar bilan namoyon bo'luvchi psixologik hodisa hisoblanadi. Nizoli vaziyatda bir tomonning harakatlari boshqa tomonga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir nafaqat biror shaxsning zarar ko'rishni, balki u o'ziga xos javob harakatlarini rejalashtirish va ko'rishni

boshlashidan iborat. Ya'ni birining xatti-harakati boshqasining xatti-harakatlarida tegishli o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Shunday qilib, nizo sub'ektlari u yoki bu tarzda bir-biriga ta'sir qiladi. Shuningdek, biror bir munozarali harakatlarda dushmanning ta'siri ayniqsa, keskin bo'ladi, chunki ular boshqalarning rejalarini va maqsadlarini yo'q qilishga harakat qiladilar. Har qanday nizolarni hal qilish, birinchidan, nizoli vaziyatning o'zini o'zgartirish orqali, ikkinchidan, tomonlarda mavjud bo'lgan vaziyatlarning tasvirlarini o'zgartirish orqali amalga oshiriladi. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, mazkur paragraf yuzasidan quyidagilarni xulosa qilib ko'rsatish mumkin:

1. Nizoli xulq bu – o'ziga xos formulaga ega bo'lgan harakatlar majmui hisoblanib, unda nizo, voqea, muammo, ziddiyatli vaziyat, nizo ishtirokchilari kabi ob'ektlar mavjud.

2. Nizoli xulq – ba'zan samarali ta'sir kuchiga ega bo'lsada, biroq, uning muntazamligi hattoki kasallikka, ish unumining tushib ketishiga, bir kishini boshqa kishiga dushman sifatida tanitishga olib keluvchi xatti –harakatdir.

3. Nizoli xulq – faol, passiv, kompromist kabi shakllarga ega bo'lib, uning kechishi va davomiyligi ishtirokchilardan birining davogarlik darajasiga bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Hocker W. S. Interpersonal conflict / W. Hocker. - NY.: Prentice Hall Press. –2007. – P.267.
2. Алексеев П.В. Философия: учебник / П. В. Алексеев А. В. Панин. - Москва : Проспект, 2017. – С.123.
3. Добринина О.А. Практическая психология конфликта: современные психотехнологии / О.А. Добринина // Учебно-методическое пособие и хрестоматия, Новосибирск: Изд-во НИКПИПРО, 2004. – С.32 - 39.
4. Зайцева Е.В. Психологические условия и факторы снижения конфликтности личности в системе "Руководитель подчиненный": автореф. дис./Е.В. Зайцева. - М., 1998. – С.11.
5. Захорчук Л.А. Управление конфликтами в системе образования: автореф. дис. ... канд. соц. наук: 22.00.08 / Л.А. Захорчук. - М., 2006. – С.16.
6. Коузер Л. Функции социального конфликта. – М.: Дело, 2006. – С.64.
7. Курочкина И.А. Педагогическая конфликтология: учеб. пособие / И.А.
8. Курочкина, О.Н. Шахматова. - Екатеринбург: Изд-во Рос. гос. проф.-пед. ун-та, 2013. – С.98.
9. Латынов В.В. Конфликт: протекание, способы разрешения, поведение конфликтующих сторон (обзор зарубежных материалов)/В.В.Латынов/Т.Иностранная психология. РАН ИП. Т. 1. - №2. - М., 1993. - С. 12.